# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FARG‘ONA VILOYATI HOKIMINING
# QARORI

2024-yil 15-oktabr | 558-11-0-Q/24 | Farg‘ona viloyati hokimligi

## Onlayn-elektron auksion savdolarida ijara huquqi bilan sotiladigan yer uchastkalarining minimal qiymatini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8-iyundagi “Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta’minlash, yerga bo‘lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6243-son farmoniga hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-fevraldagi 71-son qarori bilan tasdiqlangan “Tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun yer uchastkalarini mulk huquqi va ijara huquqi asosida elektron onlayn-auksion orqali realizatsiya qilish tartibi to‘g‘risida”gi nizomda belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida, shuningdek, Farg‘ona viloyati ishchi guruhining takliflarini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan

**QAROR QILAMAN:**

**1.** Farg‘ona viloyati ishchi guruhining takliflari inobatga olinsin.

**2.** Farg‘ona viloyatidagi tuman, shaharlari uchun yuridik va jismoniy shaxslarga tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun ijara huquqi asosida beriladigan yer uchastkalarini boshlang‘ich narxini belgilashda “Yerelektron” ATTdagi minimal qiymati ilovalariga muvofiq belgilansin.

**3.** Tuman va shaharlar hokimliklari auksion g‘olibi bilan belgilangan muddatda ijara shartnomasini tuzilishini ta’minlasin.

**4.** Farg‘ona viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Ro‘zaliyev) tushumlarning o‘z vaqtida taqsimlanishi va maqsadli sarflanishi yuzasidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

**5.** Farg‘ona viloyati Qurilish va uy-joy kommunal bosh boshqarmasi (Pozilov), Kadastr agentligi Farg‘ona viloyati boshqarmasi (Mashrapov), Davlat aktivlarini boshqarish Farg‘ona viloyati hududiy boshqarmasi (Saliyev), Soliq boshqarmasi (Mamatxonov), Kichik va yoshlar sanoat zonalarini boshqarish bo‘yicha yagona

direksiyasi (Xabibidinov) shahar va tuman hokimliklari bilan birgalikda yuridik va jismoniy shaxslarga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun yer uchastkalarini ijara huquqi bilan berish maqsadida belgilangan tartibda auksion savdolariga chiqarilishini taʼminlasin.

**6.** Har bir tuman (shahar) uchun yer uchastkasiga ijara huquqining minimal qiymati ushbu qaror kuchga kirgan kundan eʼtiboran ikki ish kuni ichida soliq xizmati organlari tomonidan “Yerelektron” AATga kiritilsin.

**7.** Farg‘ona viloyati hokimligi Axborot xizmati, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi Farg‘ona viloyati boshqarmasiga mazkur qarorni ommaviy axborot vositalarida eʼlon qilish tavsiya etilsin.

**8.** Mazkur qaror “Yangi Fargʻona” gazetasida rasman eʼlon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

**9.** Ushbu qaror rasmiy eʼlon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

**10.** Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan Farg’ona viloyat hokimininig 2022-yil 26-apreldagi “Elektron auksion savdolarda ijara huquqi bilan sotiladigan yer uchastkalarining 2022 yil uchun minimal qiymatini belgilash to‘g‘risida”gi 175-11-0-Q/22-sonli qarori bekor qilinsin.

**11.** Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Farg‘ona viloyati hokimining oʻrinbosarlari X.Sirojitdinov va X.Isaqovlar zimmasiga yuklansin.

**Viloyat hokimi** **X. Bozarov**

Farg‘ona viloyat hokimining
2024-yil 15-oktabrdagi
558-11-0-Q/24-son qaroriga
1-ilova

**Farg‘ona viloyatida yuridik va jismoniy shaxslarga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun onlayn-auksion savdolarida yer uchastkalarini ijara huquqini (0,01 gektar maydon uchun) minimal qiymati**

| № | Shahar va tuman nomi | *0,01 gektar uchun boshlang‘ich narx (ming so‘m)* | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | **Шаҳар ва туман марказларида** | | | | | | | | |
| | | **Sanoat va ishlab-chiqarish faoliyati yo‘nalishida** | **Kichik va yoshlar sanoat zonalari** | **Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va qayta ishlash yo‘nalishida** | | | **Savdo, maishiy xizmat ko‘rsatish va servis yo‘nalishida** | | **Ko‘p kvartirali uy-joylar yo‘nalishida** | **Sog‘liqni saqlash, ta’lim va maktabgacha ta’lim, madaniyat muassasalari** |
| | | | | **shundan** | | | | | | |
| | | | | **Issiqxonalar** | **Baliqchilik** | **Boshqalar** | **Shaharning markazi hududlari** | **Shaharning chekka hududlari** | | |
| 1 | Farg‘ona shahar | 250,0 | 150,0 | 1 000,0 | 1 000,0 | 2 000,0 | 30 000,0 | 150 000,0 | 20 000,0 | 9 000,0 |
| 2 | Marg‘ilon shahar | 250,0 | 150,0 | 1 000,0 | 1 000,0 | 2 000,0 | 25 000,0 | | 20 000,0 | 9 000,0 |
| 3 | Qo‘qon shahar | 250,0 | 150,0 | 1 000,0 | 1 000,0 | 2 000,0 | 25 000,0 | | 20 000,0 | 9 000,0 |

| | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 4 | Quvasoy shahar | 250,0 | 150,0 | 1 000,0 | 1 000,0 | 2 000,0 | 10 000,0 | 15 000,0 | 7 000,0 |
| 5 | Beshariq tumani | 200,0 | 150,0 | 500,0 | 400,0 | 1 000,0 | 5 000,0 | 8 000,0 | 4 000,0 |
| 6 | Bag‘dod tumani | 200,0 | 150,0 | 500,0 | 400,0 | 1 000,0 | 5 000,0 | 8 000,0 | 4 000,0 |
| 7 | Buvayda tumani | 200,0 | 150,0 | 500,0 | 400,0 | 1 000,0 | 5 000,0 | 8 000,0 | 4 000,0 |
| 8 | Dang‘ara tumani | 200,0 | 150,0 | 500,0 | 400,0 | 1 000,0 | 5 000,0 | 8 000,0 | 4 000,0 |
| 9 | Yozyovon tumani | 200,0 | 150,0 | 500,0 | 400,0 | 1 000,0 | 5 000,0 | 8 000,0 | 4 000,0 |
| 10 | Oltiariq tumani | 200,0 | 150,0 | 500,0 | 400,0 | 1 000,0 | 5 000,0 | 8 000,0 | 4 000,0 |
| 11 | Rishton tumani | 200,0 | 150,0 | 500,0 | 400,0 | 1 000,0 | 5 000,0 | 8 000,0 | 4 000,0 |
| 12 | So‘x tumani | 200,0 | 150,0 | 500,0 | 400,0 | 1 000,0 | 5 000,0 | 5 000,0 | 4 000,0 |
| 13 | Toshloq tumani | 200,0 | 150,0 | 500,0 | 400,0 | 1 000,0 | 5 000,0 | 8 000,0 | 4 000,0 |
| 14 | Uchko‘prik tumani | 200,0 | 150,0 | 500,0 | 400,0 | 1 000,0 | 5 000,0 | 8 000,0 | 4 000,0 |
| 15 | Farg‘ona tumani | 200,0 | 150,0 | 500,0 | 400,0 | 1 000,0 | 5 000,0 | 8 000,0 | 4 000,0 |

| | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 16 | Furqat tumani | 200,0 | 150,0 | 500,0 | 400,0 | 1 000,0 | 5 000,0 | 8 000,0 | 4 000,0 |
| 17 | O‘zbekiston tumani | 200,0 | 150,0 | 500,0 | 400,0 | 1 000,0 | 5 000,0 | 8 000,0 | 4 000,0 |
| 18 | Quva tumani | 200,0 | 150,0 | 500,0 | 400,0 | 1 000,0 | 5 000,0 | 8 000,0 | 4 000,0 |
| 19 | Qo‘shtepa Tumani | 200,0 | 150,0 | 500,0 | 400,0 | 1 000,0 | 5 000,0 | 8 000,0 | 4 000,0 |

***Izoh: Farg‘ona shahrining cheka hududlari dep - Mustaqillik, Xo‘jamag‘iz, Sharshara, Oqariqobod, 1-Beshbola, Guliston, Ipak yo‘li, Afrosiyob MFY hududlari nazarda tutilgan. (Mazkur MFYlar hududidan o‘tgan asosiy avtomobil yo‘llari bo‘yida joylashgan yer uchastkalariga nisbatan markaziy hudud narxlari qo‘llaniladi)***

Farg‘ona viloyat hokimining
2024-yil 15-oktabrdagi
558-11-0-Q/24-son qaroriga
2-ilova

**Farg‘ona viloyatida yuridik va jismoniy shaxslarga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun onlayn-auksion savdolarida yer uchastkalarini ijara huquqini (0,01 gektar maydon uchun) minimal qiymati**

| № | Shahar va tuman nomi | *0,01 gektar uchun boshlang‘ich narx (ming so‘m)* | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Boshqa hududlarda hamda yo‘ldosh shaharchalarda | | | | | | | |
| | | Sanoat va ishlab-chiqarish faoliyati yo‘nalishida | Kichik va yoshlar sanoat zonalari | Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va qayta ishlash yo‘nalishida | | | Savdo, maishiy xizmat ko‘rsatish servis va boshqa yo‘nalishlarda | Ko‘p kvartirali uy-joylar yo‘nalishida | Sog‘liqni saqlash, ta’lim va maktabgacha ta’lim, madaniyat muassasalari |
| | | | | shundan | | | | | |
| | | | | Issiqxonalar | Baliqchilik | Boshqalar | | | |
| 1 | Farg‘ona shahar | 150,0 | 80,0 | 500,0 | 500,0 | 700,0 | 3 000,0 | 8 000,0 | 2 000,0 |
| 2 | Marg‘ilon shahar | 150,0 | 80,0 | 500,0 | 500,0 | 700,0 | 3 000,0 | 8 000,0 | 2 000,0 |
| 3 | Qo‘qon shahar | 150,0 | 80,0 | 500,0 | 500,0 | 700,0 | 3 000,0 | 8 000,0 | 2 000,0 |

| | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 4 | Quvasoy shahar | 150,0 | 80,0 | 500,0 | 500,0 | 700,0 | 3 000,0 | 8 000,0 | 2 000,0 |
| 5 | Beshariq tumani | 125,0 | 80,0 | 200,0 | 100,0 | 500,0 | 2 000,0 | 8 000,0 | 1 500,0 |
| 6 | Bagʻdod tumani | 125,0 | 80,0 | 200,0 | 100,0 | 500,0 | 2 000,0 | 8 000,0 | 1 500,0 |
| 7 | Buvayda tumani | 125,0 | 80,0 | 200,0 | 100,0 | 500,0 | 2 000,0 | 8 000,0 | 1 500,0 |
| 8 | Dangʻara tumani | 125,0 | 80,0 | 200,0 | 100,0 | 500,0 | 2 000,0 | 8 000,0 | 1 500,0 |
| 9 | Yozyovon tumani | 125,0 | 80,0 | 200,0 | 100,0 | 500,0 | 2 000,0 | 8 000,0 | 1 500,0 |
| 10 | Oltiariq tumani | 125,0 | 80,0 | 200,0 | 100,0 | 500,0 | 2 000,0 | 8 000,0 | 1 500,0 |
| 11 | Rishton tumani | 125,0 | 80,0 | 200,0 | 100,0 | 500,0 | 2 000,0 | 8 000,0 | 1 500,0 |
| 12 | Soʻx tumani | 125,0 | 80,0 | 200,0 | 100,0 | 500,0 | 2 000,0 | 5 000,0 | 1 500,0 |
| 13 | Toshloq tumani | 125,0 | 80,0 | 200,0 | 100,0 | 500,0 | 2 000,0 | 8 000,0 | 1 500,0 |
| 14 | Uchkoʻprik tumani | 125,0 | 80,0 | 200,0 | 100,0 | 500,0 | 2 000,0 | 8 000,0 | 1 500,0 |

| | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 15 | Farg‘ona tumani | 125,0 | 80,0 | 200,0 | 100,0 | 500,0 | 2 000,0 | 8 000,0 | 1 500,0 |
| 16 | Furqat tumani | 125,0 | 80,0 | 200,0 | 100,0 | 500,0 | 2 000,0 | 8 000,0 | 1 500,0 |
| 17 | O‘zbekiston tumani | 125,0 | 80,0 | 200,0 | 100,0 | 500,0 | 2 000,0 | 8 000,0 | 1 500,0 |
| 18 | Quva tumani | 125,0 | 80,0 | 200,0 | 100,0 | 500,0 | 2 000,0 | 8 000,0 | 1 500,0 |
| 19 | Qo‘shtepa Tumani | 125,0 | 80,0 | 200,0 | 100,0 | 500,0 | 2 000,0 | 8 000,0 | 1 500,0 |

***Izoh:*** *Farg‘ona shahrining cheka hududlari dep - Mustaqillik, Xo‘jamag‘iz, Sharshara, Oqariqobod, 1-Beshbola, Guliston, Ipak yo‘li, Afrosiyob MFY hududlari nazarda tutilgan. (Mazkur MFYlar hududidan o‘tgan asosiy avtomobil yo‘llari bo‘yida joylashgan yer uchastkalariga nisbatan markaziy hudud narxlari qo‘llaniladi)*